

## ISLOM VA JAMIYATDA DINIY BAG‘RIKENGLIKNING O‘RNI VA AHAMIYATI

**Madraximova Yulduzxon Shavkatbek qizi**

*Farg‘ona davlat universiteti 2-kurs talabasi*

[madraximova2002@gmail.com](mailto:madraximova2002@gmail.com)

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada islom dini ta’limotida diniy bag‘rikenglikning o‘rni va uning zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Qur‘on oyatlari va hadislar asosida islom dinining boshqa din vakillariga bo‘lgan muomalasi, tinchlikparvarlik va bag‘rikenglik tamoyillari yoritiladi. Shuningdek, musulmon jamiyatlarida diniy bag‘rikenglikning ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashdagi o‘rni va bu boradagi tarixiy tajribalar ham ko‘rib chiqiladi. Maqolada O‘zbekiston misolida diniy bag‘rikenglikka oid davlat siyosati va fuqarolararo totuvlikni mustahkamlash borasidagi yondashuvlar tahlil etiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *Islom, diniy bag‘rikenglik, jamiyat, Qur‘on, hadis, dinlararo muloqot, tinchlik, O‘zbekiston, ijtimoiy barqarorlik, murosaviylik.*

**Annotation:** *This article analyzes the role and importance of religious tolerance in Islam and its relevance in modern society. It highlights the principles of tolerance and peaceful coexistence in Islam based on verses from the Qur'an and Hadiths. The article also examines the role of religious tolerance in ensuring social stability within Muslim communities and provides historical examples. Furthermore, it discusses the state policy on religious tolerance in Uzbekistan and the approaches taken to strengthen interfaith harmony.*

**Keywords:** *Islam, religious tolerance, society, Qur'an, Hadith, interreligious dialogue, peace, Uzbekistan, social stability, mutual respect.*

**Аннотация:** *В данной статье анализируется роль и значение религиозной терпимости в исламе и её актуальность в современном обществе. На основе аятов Корана и хадисов раскрываются принципы терпимости и мирного сосуществования, заложенные в исламском учении. Также рассматривается вклад религиозной терпимости в обеспечение социальной стабильности в мусульманских обществах и приводятся исторические примеры. Особое*

*внимание уделяется государственной политике Узбекистана в сфере религиозной терпимости и подходам к укреплению межрелигиозного согласия.*

**Ключевые слова:** *Ислам, религиозная терпимость, общество, Коран, хадисы, межрелигиозный диалог, мир, Узбекистан, социальная стабильность, взаимоуважение.*

Bag‘rikenglik islom dinining asosiy tamoyillari va axloqiy qadriyatlaridan biri hisoblanadi. Islom dini musulmonlarni boshqa din vakillari bilan go‘zal muomalada bo‘lish, ularga nisbatan bag‘rikeng munosabat o‘rnatish va umumiy tamoyillarga asoslangan do‘stona aloqalarni yo‘lga qo‘yishga undaydi.

Alloh aytadi: “Kechirimli bo‘l, yaxshilikka buyur va johillardan yuz o‘gir” (*A‘rof surasi, 199-oyat*). Qur‘oni karimning ushbu oyati barchaga birdek bag‘rikeng munosabatda bo‘lishni hamda ushbu tamoyilni qabul qilmagan bilimsiz johillarga e‘tibor bermaslikga buyurmoqda.

Shuni ta‘kidlash kerakki, Qur‘on bag‘rikenglikni ibodat darajasiga ko‘targan hamda uni Allohning roziligiga bog‘liq ekanini ta‘kidlagan. Alloh aytadi: “Yo‘q! Kimki yaxshilik qilgan hoida yuzini Allohga topshirsa, unga Rabbi huzurida ajr bordir. Ularga xavf yo‘q va ular xafa ham bo‘lmaslar” (*Baqara surasi, 112-oyat*).

Hadisi shariflarda ham diniy bag‘rikenglikga chaqirilgan. Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom boshqa insonlarga nisbatan nafrat, adolatsizlik, erkinlikni cheklash hamda ularning e‘tiqodi, irqi, tana rangi yoki millati sababli zulm qilishdan qaytarganlar. Buning misoli u zot alayhissalom Madinaga kirganlarida musulmon bo‘lmaganlar bilan tuzgan shartnomasi bo‘lib, ushbu shartnomada g‘ayridinlar musulmonlar bilan bir xil huquq va burchlarga ega fuqarolar sifatida belgilangan edi. Muhammad alayhissalom sahobalariga ularga yaxshi muomala qilish, yordam berish, himoya qilish va ularga hech qanday zarar yetkazmaslikga buyurdilar. Misol uchun, Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom Najron qabilasiga mansub nasroniy dinidagi elchilarni kutib olganlarida ularga yuksak hurmat-ehtirom ko‘rsatdilar. Hatto ularning ibodat vaqti bo‘lib qolganida, Masjidi nabaviyda ibodatlarini ado etishlariga ruxsat berdilar. Najron elchilari quyosh chiqar tomonga qarab ibodatni boshlab yuborganlarida, Payg‘ambar alayhissalom sahobalariga: “Ularga tegmanglar”, dedilar. Shu tariqa, g‘ayridin elchilar Masjidi nabaviyda ibodatlarini emin-erkin ado etdilar.

Payg‘ambar alayhissalom Najron qabilasi elchilari bilan muloqot olib borganlarida ularga islom dinini majburan taklif etmadilar, balki istasalar o‘z dinlarida qolishlari mumkinligini aytdilar. Shundan so‘ng Najron elchilari: “Siz ham o‘z diningizda, biz ham o‘z dinimizda qolamiz. Ammo, biz bilan o‘zingiz rozi bo‘lgan sahobalaringizdan birini yuboring, u o‘rtamizda mol-mulklarimizni taqsimlashda hakam bo‘lsin, chunki biz sizga ishonamiz”, dedilar. Ushbu voqea bir jamiyatda yashayotgan turli din vakillarining taraqqiyot, vatan himoyasi hamda tinchlikni ta‘minlashga qaratilgan o‘zaro aloqalariga yaqqol misol bo‘ladi. Islom dini ushbu yo‘nalishlarda boshqa din vakillari bilan mustahkam do‘stlik aloqalarini o‘rnatishga chaqiradi.

Qur‘on boshqa din vakillarini islom dinini qabul qilishga majburlashdan qaytaradi. Alloh aytadi: “Agar Rabbing xohlasa, Yer yuzidagi kishilarning hammasi imonga kelar edi. Yoki sen odamlarni mo‘min bo‘lishga majburlaysanmi?” (*Yunus surasi, 99-oyat*).

Islom dini boshqalarni dinga kirishga majburlamaslikga buyurish orqali bag‘rikenglikning yuksak namunasini ko‘rsatib bergan.

Qur‘onda dinlararo muloqot ziddiyatlarga olib kelmasligi bayon etilgan. Alloh aytadi: “Bugungi kunda sizlarga pok narsalar halol qilindi. Kitob berilganlarning taomi siz uchun haloldir” (*Moida surasi, 5-oyat*). Boshqa bir oyatda quyidagicha keladi: “Sizlar ahli kitoblarning zulm qilganlardan boshqalari bilan faqat yaxshi uslubda mujodala etinglar va ularga: “Biz o‘zimizga nozil qilingan narsaga iymon keltirdik, bizning ilohimiz va sizning ilohingiz birdir va biz unga bo‘ysunguvchimiz”, denglar” (*Ankabut surasi, 46-oyat*).

Diniy bag‘rikenglikning namunalaridan biri, barcha din vakillariga adolatli munosabatda bo‘lishdir. Dinlararo adolat tamoyili barcha samoviy dinlarga xos hisoblanadi. Bunga Qur‘oni karimning Hadid surasidagi oyat ham dalolat qiladi: “Darhaqiqat, Biz payg‘ambarlarimizni ravshan(narsa)lar ila yubordik va ular ila Kitob hamda odamlar adolatda turishlari uchun mezon tushirdik” (*Hadid surasi, 25-oyat*).

Islom dini jamiyatdagi adolat mezoni qaysi din vakili bo‘lishidan qat‘iy nazar barchaga birdek barobar taminlanishi zarurligini ta‘kidlaydi. Shuning uchun oyati karimada “musulomlar o‘rtasida” deb emas, balki “insonlar o‘rtasida” deya umumiy tarzda xitob etilgan. Jumladan, Niso surasida aytiladi: “Albatta, Biz sizga Kitobni haq

ila odamlar orasida sizga Alloh ko‘rsatganiga hukm qilishingiz uchun tushirdik” (Niso surasi, 105-oyat).

Yuqoridagi oyatlardan ma‘lum bo‘ladiki, islom dinlararo bag‘rikenglikni adolat mezoni bilan tartibga solishga buyurib, insonlarning huquqlarini cheklashni qoralagan. Diniy bag‘rikenglikning eng muhim tamoyillaridan biri – boshqa din vakillarining e‘tiqodlariga hurmatda bo‘lish hamda dinlar o‘rtasidagi turlilik Alloh iroda qilgan hikmati ilohiysi ekanini qabul qilishdir. Boshqalarning e‘tiqodlari sabab yuzaga kelgan nafrat va zo‘ravonlikdan voz kechmasdan barqaror va tinch jamiyat qurish amri mahol. So‘nggi o‘n yilliklarda islom olami o‘z harakatlarini islomga nisbat beradigan, biroq ularning faoliyati sof islom ta‘limotlaridan juda uzoq bo‘lgan g‘ayriinsoniy fikrlarni qabul qilgan guruhlar faoliyatidan aziyat chekmoqda. Ushbu toifadagi ayrim guruhlar diniy qarashlari o‘zlarinikidan farq qiluvchi har qanday insonni kuforda ayblab, musulmonlarning qonlarini halol sanamoqdalar, ularga nisbatan “jihod” niqobi ostida urush ochmoqdalar. Bu esa, Qur‘oni karim va hadisi shariflarda kelgan diniy bag‘rikenglik tamoyillariga mutlaqo ziddir. Jumladan, Qur‘oni karimning Mumtahana surasida boshqa din vakillari musulmonlar bilan ularning dinlari uchun urush ochmagunlaricha xushmuomalada bo‘lishga chaqiradi.

Alloh aytadi: “Alloh sizlarni din sababli urush qilmagan va diyorlaringizdan chiqarmaganlarga yaxshilik va adolatli muomala qilishdan qaytarmas. Albatta, Alloh adolat qiluvchilarni yaxshi ko‘radir” (*Mumtahana surasi, 8-oyat*).

Shuni ta‘kidlash kerakki hozirgi kunda ham diniy bag‘rikenglik masalasi katta ahamiyatga ega. Millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik masalasini isloh qilish va rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi 4947-sonli qaroriga muvofiq 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan “Harakatlar strategiyasi”ning 5-yo‘nalishi bo‘lgan “Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash, chuqur yo‘naltirilgan, o‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosatni yuritish” doirasida amalga oshirilayotgan diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik masalasi amalda o‘z ifodasini topmoqda. Shu jumladan, bu ikki yo‘nalish bir-biriga uzviy bog‘liq va biri ikkinchisini to‘ldirib keladi. Bu ikki manba ham davlat va xalq uchun o‘ta muhim ahamiyatga ega yo‘nalishlar hisoblanadi. Zero, Prezidentimiz ta‘kidlaganidek: “Xavfsizlik, millatlararo totuvlik hamda diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash, chuqur o‘ylangan o‘zaro manfaatli va amaliy

ruhdagi tashqi siyosatni yuritish” orqali davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash bosh maqsadimizdir.

Diniy bag’rikenglik masalasi bugungi kunda malakatimiz rivoji uchun muhim masalasidan biri xisoblanadi. Muhtram Prezidentimiz SH. Mirziyoyevning: Xarakatlar strategiyasining 5- yunalishida: ham shu mavzuga alohida e’tibor berilgani ham bejiz emas, zero ki yurtimizda 130 dan ortiq millat va ellatlar yashashi va ularning tinch totuv birdamlikda turmush tarzini kechirib kelishi bu albatta dinlar aro bag’rikenglik siyosatining axamiyati muhim ekanligini o’z tasdig’ini topib turibdi desak mubolag’a bo’lmaydi. Yaqin o’tmish tariximizdan siz bizga ma’lumki, Sobiq Sho’rolar davrida diniy bag’rikenglik masalasi din masalari bir chekkada qolib ketdi. Xalq ongiga din qoralab ko’rsatib eskilik sarqiti Atestik ta’limotni majburiy singdirishga qaratilgan ta’limotlar bilan xalqimiz ongidan diniy bag’rikenglik g’oyalarini chiqarib tashlashga urinishlar bo’ldi. Davlatimiz musataqillikka erishgach diniy bag’rikenglik masalalariga etibor qaytadan tiklandi. Milliy va umubashariy qadariyatlarimiz uyg’unlashdi Ayniqsa O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4 sentyabrdagi diniy ma’rifiy soha faoliyatini takomillashtirishga doir qo’shimcha chora tadbirlari to’g’risida” gi PQ-4436 sonli qarorida xam o’z tasdig’ini topdi. Ayniqsa qarorda O’zbekistonda islom sivilizatsiyasi markazi , Imom Buxoriy va Imom Termiziy xalqaro ilmiy tadqiqot markazlari tashkil etildi. Viloyatlarda kalom,xadis,fiqh, aqida, va tasavvuf ilimlarini o’rganishga ixtisoslashgan beshta ilmiy maktabning ochlishi xam yurtimizda diniy bag’rikenglik masalalarini ta’lim tizimida xam rivojlantirishga muhim omil bo’lib xizmat qilmoqda.

2017–2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasi doirasida so’nggi 3 yil davomida diniy bag’rikenglikni ta’minlash sohasida quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirildi: BMT Bosh Assambleyasi 2018-yilning 12-dekabr oyida o’tkazilgan yalpi majlisda “Ma’rifat va diniy bag’rikenglik” deb nomlangan maxsus rezolutsiyani qabul qildi. O’zbekiston tomonidan ishlab chiqilgan hujjat loyihasi BMTning barcha a’zo davlatlari tomonidan bir ovozdan qo’llab-quvvatlandi. Mazkur rezolutsiyani qabul qilish tashabbusi 2017-yil sentyabr oyida BMT Bosh Assambleyasining Nyu-Yorkdagi 72-sessiyasida O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan ilgari surildi.

2018-yil 16-apreldagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3668-sonli Qaroriga muvofiq Qo‘mita huzurida faoliyat yuritadigan jamoatchilik-maslahat organi hisoblanmish Konfessiya ishlari bo‘yicha kengashning yangi tarkibi tasdiqlandi. Kengash tarkibi 9 tadan 17 ta a‘zoga – O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan diniy konfessiyalar vakillari hisobiga kengaydi.

2018-yilning 16-aprelida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoev «Diniy-ma‘rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5416-sonli Farmonni imzoladi. Mazkur hujjat O‘zbekistonda diniy ta‘lim tizimining uzluksizligini ta‘minlashga qaratilgan: boshlang‘ich bosqichdan (o‘rta maxsus islom ta‘lim muassasalari yoki madrasalar) tortib, to oliy va undan keyingi diniy ta‘limgacha edi.

2019-yil 4-sentabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Diniyma‘rifiy soha faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-4436-sonli qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha Qo‘mitaning Ichki ishlar vazirligi, O‘zbekiston Yoshlar Ittifoqi, O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha Respublika kengashi bilan jamiyatda vijdon erkinligi va diniy-ma‘rifiy muhit barqarorligi kafolatlarini ta‘minlash maqsadida mustahkam va doimiy hamkorlikni nazarda tutuvchi yangi tizim joriy etildi.

Bundan tashqari, Din ishlari bo‘yicha qo‘mita tarkibida ayollar bilan ishlash bo‘limi tashkil etildi, shuningdek, ushbu yo‘nalishdagi ishlarni nazorat qiluvchi rais o‘rinbosari lavozimi ham joriy etildi. Xotin-qizlar o‘rtasida ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni muvofiqlashtirish bo‘yicha Respublika targ‘ibot guruhi tashkil etildi.

O‘zbekiston Islom akademiyasi va Toshkent Islom universiteti negizida O‘zbekiston xalqaro Islom akademiyasi tashkil etildi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Samarqand, Namangan va Surxondaryo viloyatlarida Akademiya tarkibidagi malaka oshirish Markazi hududiy filiallari tashkil etildi.

O‘zbekiston xalqaro Islom akademiyasi huzurida “Ziyo” mediamarkazi tashkil etilib, u ajdodlarimizning diniy-ilmiy merosini keng targ‘ib qilish, dinning haqiqiy insonparvarlik maqsadini hamda diniy-ma‘rifiy hayotda sodir bo‘layotgan

yangiliklardan keng jamoatchilikni xabardor qilib borishni ta'minlovchi asosiy media-tuzilma hisoblanadi.

O'zbekiston musulmonlari idorasi huzurida "Vaqf" xayriya jamoat fondi tashkil etildi. Uning asosiy vazifasi masjidlar, ziyoratgohlar, muqaddas qadamjolar va shu kabi boshqa ob'ektlarning rekonstruktsiyasini moliyalashtirish, ularni moddiy-texnik bazasini yaxshilash hamda ushbu soha xodimlarini moddiy qo'llab quvvatlashdan iboratdir.

2018-yilning yanvar-aprel oylarida Respublika miqyosida bir necha bosqichdan iborat (tuman, shahar, viloyat, respublika) Qur'oni Karim tilovati bo'yicha qorilar ochiq musobaqasi tashkil etilib, unda 5 mingdan ziyod ishtirokchi qatnashdi.

O'zbekistonda Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy va Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari tashkil etildi. Viloyatlarda kalom, hadis, fiqh, aqida ilmi va tasavvufni o'rganishga ixtisoslashgan beshta ilmiy maktab ochildi. Islom sivilizatsiyasi markazi tomonidan O'zbekistonda Markaziy Osiyo musulmon mutafakkirlarining jahon sivilizatsiyasi rivojida roliga bag'ishlangan 10 dan ortiq kitob va risolalar tayyorlandi. Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan Imom Termiziy, Hakim Termiziy va termizlik boshqa olimlarning 20 dan ortiq asarlari o'zbek tiliga tarjima qilindi. Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Imom Nasafiy, Alouddin Usmondiy, Saffar Buxoriy va h.k. kabi ulug' allomalar asarlarining aksariyati tarjima qilinib, 50 dan ziyod kitob nashr etildi.

Ayni paytda O'zbekiston Respublikasida jami 2276 ta diniy tashkilot va 16 ta diniy konfessiya faoliyat yuritib kelmoqda. Shulardan 2093 tasi musulmon tashkiloti, 166ta xristian tashkiloti, 8ta yahudiy jamoasi, 6ta Baxoiylik jamiyati, 1 ta krishnachilar jamiyati va 1ta budda ibodatxonasi, shuningdek, O'zbekiston konfessiyalararo Bibliya jamiyati ham faoliyat ko'rsatmoqda.

2019-yilda O'zbekistonda 10 ta yangi jome masjid ochildi, natijada masjidlarning umumiy soni 2066 taga yetdi. Bundan tashqari, mamlakat miqyosida 46 ta jome masjid binosi butunlay qaytadan bunyod etilib, 225 ta masjid kapital ta'mirdan chiqarildi. 2018-yilda esa respublikada 13ta jome masjidi qayta ochildi, 39 tasi yangi qurildi va qariyb 100 tasi qayta ta'mirlandi.

O'zbekistonda Toshkent Islom universiteti, «Mir Arab» oliy madrasasi, Hadis ilmi maktabi, 9 ta madrasa, jumladan, 2 ta ixtisoslashtirilgan xotin-qizlar o'quv yurti,

Toshkent pravoslav seminariyasi, Toshkent xristian seminariyasi kabi diniy ta’lim muassasalari faoliyat ko’rsatmoqda. 2020–2021 o’quv yilidan boshlab Termiz shahrida yangi madrasa ochilishi rejalashtirilgan.

Mustaqillik yillarida 308ming nafar musulmon Saudiya Arabistoniga ziyorat uchun borgan bo’lsa, shulardan 130 ming kishi “Haj”, 178 ming kishi esa “Umra” amalini bajarishga muvaffaq bo’lgan. 2,5 ming xristian va yahudiylar Isroil, Rossiya, Turkiya, Italiya, Gruziya va Yunoniston kabi davlatlarning muqaddas diniy qadamjolariga tashrif buyurganlar. 2019-yildan e’tiboran O’zbekiston fuqarolari uchun “Umra” ziyoratlari kvotasi bekor qilindi. 2018-yildan boshlab “Umra” safari kvotasi 6 000 dan 10 000 ga oshirildi. Bugungi kunga kelib “Umra” qiluvchi fuqarolar soni 30 000 ga yetdi, “Haj” esa 5000 dan 7,200 ga ko’paydi.

So’nggi yillarda O’zbekistonda ekstremizmga qarshi kurashish chora tadbirlarini amalga oshirishdagi yondashuvlar konseptual jihatdan qayta ko’rib chiqildi. Bunda asosiy e’tibor aholi o’rtasida profilaktika va tushuntirish ishlariga qaratildi. Ushbu sohada amalga oshirilayotgan barcha sa’y-harakatlar “Jaholatga qarshi ma’rifat” degan ezgu g’oyaga asoslangan.

2018-yilning sentabr oyida terroristik, ekstremistik yoki boshqa ta’qiqlangan tashkilot va guruhlariga adashib a’zo bo’lib qolgan O’zbekiston Respublikasi fuqarolarini jinoiy javobgarlikdan ozod qilish tartibi tasdiqlandi. Bugungi kunda globallashuv sharoitida Diniy bag’rikenglik masalasi Prezidentimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan maktab darsliklaridagi “Tarbiya” fani ham diniy bag’rikenglik g’oyalarini singdirishda muhim omil bo’lib xizmat qilmoqda. Ayniqsa 10 sinf Tarbiya fanidagi 2-bobida diniy bag’rikenglik g’oyalari dinning jamiyat hayotidagi o’rni xaqida xam alohida to’xtalib o’tilgan. Dunyo dinlarida insonparvarlik vatanparvarlik, shukronalik, kechirimlik, qanoat, sadoqat kabi fazilatlarini xam o’z aksini topgan. Muzrabot tumani 20-maktabda bo’lib o’tgan “Diniy bag’rikenglik jamiyatimiz kelajagi” mavzusidagi smenarimizda ham maktab o’quvchilari tomonidan juda katta qiziqishga sabab boldi. So’zimiz so’ngida shuni anglatadiki, Diniy bag’rikenglik g’oyalarini targ’ib qilish ta’lim tizimida ham o’zining ijobiy tomonlarini ko’rsatmoqda desak adashmagan bo’lamiz degan umiddaman.

Xulosa qilib aytganda, islom dini o’z mohiyatiga ko’ra bag’rikenglik, murosaviylik va tinchlik dini hisoblanadi. Qur’on oyatlari va hadislar musulmonlarni faqat o’z dinida bo’lganlarga emas, balki boshqa e’tiqod vakillariga nisbatan ham

adolatli va hurmatli munosabatda bo‘lishga da’vat etadi. Zamonaviy jamiyatda esa diniy bag‘rikenglik nafaqat muqaddas diniy qadriyat, balki ijtimoiy barqarorlik, millatlararo totuvlik va taraqqiyotning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekiston tajribasi shundan dalolat beradiki, dinlararo bag‘rikenglik va diniy erkinlikka asoslangan siyosat fuqarolar o‘rtasida totuvlikni mustahkamlashga, yoshlar ongida to‘g‘ri diniy tushunchalarni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Shunday ekan, islom dini ta’limotida mujassam bo‘lgan bag‘rikenglik tamoyillarini chuqur o‘rganish va hayotga tatbiq etish – zamonaviy jamiyat taraqqiyoti uchun muhim shartlardan biridir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid Davlat siyosatini o‘rganish bo‘yicha ilmiy-uslubiy risola. – Toshkent, 2017.
- 2.. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” to‘g‘risidagi farmoni. “Taraqqiyot strategiyasi” markazi Axborot xizmati manbasi ("Taraqqiyot strategiyasi" markazining rasmiy kanali) 2020-yil 15-iyul.
3. Qutbiddinov A. Dinshunoslik. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
4. Mansur A. Islomda diniy bag‘rikenglik. – T.: Muslim.uz, 2022.
5. Zohidov Sh. Islom va jamiyat: zamonaviy yondashuvlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2020.
6. TIAME jamoasi. Dinshunoslik asoslari. – Toshkent: TIAME nashriyoti, 2021.
7. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2023.
8. O‘zbekiston Islom Sivilizatsiyasi markazi. Diniy bag‘rikenglik va fuqarolararo totuvlik. – T.: 2021.
9. Al-Qur’on al-Karim. – Ma’nolar tarjimasi: A. Mansur. – Toshkent: Hilol-nashr, 2016.
10. Abduqodirov A. Islomda bag‘rikenglikning ijtimoiy ahamiyati.
11. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.